

## INGLIZ TILIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

*Umatova Ma'mura Bekbulovna, Guliston davlat universiteti  
o'qituvchisi*

## TECHNOLOGIES FOR TEACHING ENGLISH PHRASEOLOGICAL UNITS

*Umatova Mamura Bekbulovna, teacher Gulistan State University*

## ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЗМАМ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

*Уматова Мамура Бекбуловна, преподаватель Гулистанского  
государственного университета*

**Annotatsiya:** *Ingliz tilini o'rganuvchilar leksikani o'rganish uchun ko'p vaqt sarflashadi. Ayniqsa, frazeologizmlarni o'rganish uchun darsliklarda ma'lumot kam bo'lib, talabalar o'rganan frazeologik birliklarni real vaziyatda ishlatishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Maqolada ingliz tili darslarida frazeologizmlar bilan ishlashda qo'llaniladigan usullar tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *frazeologizm, frazeologik birlik, leksik kompetentsiya, tarjima, talqin, lingvistik taxmin.*

**Abstract:** *English language learners spend a lot of time learning vocabulary. In particular, there is little information in textbooks on the study of phraseology, and students face difficulties in using learned phraseological units in real situations. The article analyzes the methods used in working with phraseological units.*

**Keywords:** *phraseological unit, phraseological unit, lexical competence, translation, interpretation, linguistic assumption.*

**Аннотация:** *Изучающие английский язык тратят много времени на изучение словарного запаса. В частности, в учебниках по изучению фразеологии мало информации, а учащиеся сталкиваются с трудностями при использовании выученных фразеологизмов в реальных ситуациях. В статье анализируются методы, используемые в работе с фразеологизмами.*

**Ключевые слова:** *фразеологизм, фразеологизм, лексическая компетентность, перевод, интерпретация, лингвистическое предположение.*

**KIRISH.** Tilning frazeologik tarkibi uning lug'at tarkibining eng rang-barang va ifodali qismidir. Frazeologizmlar xalqning boy tarixiy tajribasini, turmushi va madaniyatining o'ziga xosligini, urf-odat va an'alarini o'zida aks ettiradi. Frazeologik iboralar ko'pincha badiiy adabiyotda qo'llaniladi, bu esa matnga yorqin stilistik rang, tasvir va hissiyot beradi. Frazeologik birlikning ma'nosi odatda pardali bo'lib, uni tashkil etuvchi leksemalarning ma'nolaridan xulosa chiqarish mumkin bo'lmagani uchun ularni boshqa tilga tarjima qilish qiyinchilik tug'diradi. Frazeologik birliklar o'zlarining to'liqligi, ishlatilish qulayligi, ixcham va nafisligi bilan boshqa til birliklaridan katta farq qiladi. Ular til birligi sifatida ifodalanadi va nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

O'zbek tilshunos olimlari orasida Sh.Rahmatul-layev, M.Sodiqova, M.Abdurahimov, A.Ye.Mamatov, K.D.To'xtayeva va boshqalar frazeologiya bo'limiga o'z hissalarini qo'shib, frazeologik birliklar haqidagi ilmiy va nazariy tushunchalarini bayon qildilar. Frazeologik birliklarni tarjima qilish muammolari L.S.Barxudarov, V.N.Komissarov, V.Vinogradov, G'.Salomov, K.Musayev, N.Komilov, N.Otajonov va boshqalarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

So'nggi yillarda o'zbekistonlik bir qator olimlar ingliz va o'zbek frazeologik birliklarini o'rganishmoqda. Jumladan, D.Abdukabirova frazeologik birliklar haqida tushuncha berib, eng yaxshi ta'rifi: "bu qisman yoki to'lik majoziy



[https://orcid.org/  
0009-0004-5669-2453](https://orcid.org/0009-0004-5669-2453)

e-mail:

[umatova.mamura@mail.ru](mailto:umatova.mamura@mail.ru)

ma'noga ega so'zlarning barqaror, izchil birikmasidir", deydi[1] va ingliz frazeologizmlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda nimalarga e'tibor berish kerakligini ko'rsatib o'tadi. S.T.Xudoyorova va S.N.Xudoyorovalar antroponim va toponim komponentli frazeologik birliklarning konnotativ aspektini tadqiq qilishdi[4]. Sh.Niyazmetova ingliz tili leksikasida frazeologik birliklarni o'qitish uchun ayrim usullarni tahlil qildi[3]. A.P.Vasilevich va L.K.Popovalar ingliz tilidagi turli xil frazeologizmlarini o'qitish kommunikativ kompetensiyani faollashtirishga imkon beradi deb, ingliz frazeologizmlarini rus frazeologizmlari bilan taqqoslagan holda maxsus tuzilgan jadvallar asosida o'rganishni tavsiya qilishadi[2].

**MUHOKAMA.** Frazeologizmlar yordamida o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilishning ko'p usullari mavjud. O'qituvchi avval idiomani tushuntirishi, so'ng unga og'zaki ta'rif berishi va talabalardan misollar keltirishni so'rashi mumkin. Boshqa usulda dastlab idioma haqida gapirib, misol keltirishi va talabalarga unga ta'rif berish topshirig'ini, o'zbek va ingliz tillarida o'xshash misollarni keltirishni so'raydi. Kichik guruhlarda ishlaganda, har bir guruhga ma'lum kontekstdagi (masalan, o'simliklar, hayvonlar, shaharlar va hk. nomi keltirilgan frazeologizmlar) idiomalarni topib, tahlil qilish va tarjima qilish topshiriladi. Shuningdek, o'qituvchi yozma topshiriq berib, unda frazeologik birliklarga oid testlar bo'lishi mumkin[3].

Frazeologizmlarini o'rganishning samarali usullaridan biri – mashg'ulotda ularni jonli muhokama qilishdir. Bunda talabalarda lingvistik tafakkur va lingvistik taxmin qilish rivojlantiriladi. Buning uchun Angliya, Amerika va Avstraliya adiblarining asarlaridan frazeologizmlar tanlab olinadi. Frazeologik tahlil, identifikatsiya va frazeologik ta'rif usullari qo'llaniladi. Ayrim hollarda frazeologizmlarning ma'nosi aynan tarjimaga mos tushmasligi mumkin[2]. Ayrim frazeologik birliklarga esa o'zbek tilidagi mos FB topilmasligi ham mumkin. Masalan: to make one's bed and lie in it - o'z qilmishlari uchun javob berish, nimani eksang shuni urasan; from the horse's mouth – ishonchli manbadan; to cook one's goose – o'zini yo'q qilish, o'ziga choh qazish va b.

D.Abdukabirova quyidagicha tasnifni keltirgan[1, b.71 ]:

1. Barqaror so'z birikmalari va iboralar umuman bo'linmaydigan xususiyatlarga ega emas va ular

tarkibidagi so'zlarning ma'nosiga bog'liq bo'lmaydi. Bunga misollar: 1) To kick the bucket - jon bermoq; 2) To be all thumbs – qo'pol, beso'naqay odam; 3) The real McCoy is a diamond - olmosdek qadrli narsa; 4) Grin like a Cheshire Cat – og'zi qu-log'ida (og'zini tanobi qochdi). Bu kabi frazeologik birliklarning umumiy ma'nolari mavjud tarkibiy qismlarining ko'chma ma'nolaridan kelib chiqadi.

2. Frazeologik birliklar – ko'chma ma'noli gapda ma'no jihatidan bo'linmasligini saqlagan holatda ham qo'llaniladi: Too much to be painted the devil blacker than he is (juda bo'rtirilgan). Frazeologik birliklarni tushunish uchun ularning tarkibiy qismlari ko'chma ma'noda olinishi kerak. Masalan, "make a mountain out of a molehill" iborasi - bu bizning "pashshadan fil yasash" frazeologik birligimizga teng bo'lib, "molehill" so'zi "juda kichik narsa" va "mountain" so'zi "juda katta" ma'nolarini bermoqda.

3. Frazeologik birikmalar - erkin va frazeologik jihatdan bir-biriga yaqin ma'nolarni o'z ichiga olgan sobit birikmalardir. Bularga misollar: 1) A bosom friend - qadrli do'st; 2) Black frost - qora sovuq; 3) As red as a turkey cock – xo'rozning tojidek qizil; 4) The Blue Blanket - moviy osmon; 5) As bold as a lion - sherdek jasur; 6) As an obstinate as a mule - eshakdek qaysar.

Shuningdek, tilshunoslikda frazeologizmlarning denotativ va konnotativ ma'nosi ajratib o'rganiladi. Denotativ - frazeologizmning obyektiv ma'nosi, konnotativ esa – subyektiv ma'nosidir. Antroponim komponentli frazeologik birliklarni konnotativ ma'nosiga ko'ra 3 guruhga ajratish mumkin:

1) Ijобiy konnotatsiyali FB: Oti bor Al-pomish – jasoratli, mard; Aflotun miya – juda aqlli, donishmand; ingliz tilida the admirable Crichton – beqiyos Krixton, o'qimishli kishi (XVI asrda yashab o'tgan shotland olimi ismidan kelib chiqqan).

2) Salbiy konnotatsiyali FB: Mahmudning qadami yetgan yerda o't o'smas – Mahmud G'aznaviyning zolimligi nazarda tutilgan; ingliz tilida Jack Ketch – jallod (XVIII asrdagi ingliz jallodi ismidan).

3) Neytral FB: Daqqi Yunusdan qolgan – qadimgi, eski; John Hancock – shaxsiy imzo yoki jimjimador imzo (AQSh Mustaqillik deklaratsiyasiga birinchi bo'lib imzo qo'ygan odamning ismidan kelib chiqqan)[4, b.710].

**NATIJALAR.** Ingliz frazeologizmlari bilan ishlashning samarali usullaridan biri muhokama asosida jadvalni to'ldirishdir. Ingliz tilida frazeologik birlik berilib, dastlab uning aynan tarjimasini beriladi, so'ng mazkur frazeologizm nimani bildirishi mumkinligi borasida og'zaki muhokama o'tkaziladi.

Muhokama davomida barcha – jumladan, xato va noaniq talqinlar ham – ko'rib chiqiladi, natijada ishtirokchilarning lingvistik fikrlashi va lingvistik taxmini rivojlantiriladi. So'nggi bosqichda o'sha ma'nodagi rus yoki o'zbek frazeologizmini topish kerak bo'ladi (1- va 2- jadvallarga qarang).

1-jadval.

**O'quv mashg'ulotlarida ingliz frazeologizmlari bilan ishlash bosqichlari**

1-bosqich. Ingliz frazeologizmi	2-bosqich. O'zbek tiliga aynan (so'zma-so'z) tarjima	3-bosqich. Frazeologizmning ma'nosi	4-bosqich. O'zbekcha frazeologizm
wouldn't hurt a fly	Pashshaga zarar yetkazmaydi	Birovga zarari tegmaydi	Pashshaga ham ozor bermaydi

2-jadval.

**Berilgan sxema bo'yicha ishlash uchun tavsiya etilgan frazeologizmlar namunasi**

Ingliz frazeologizmi	O'zbek tiliga aynan (so'zma-so'z) tarjima	Frazeologizmning ma'nosi	Ruscha frazeologizm	O'zbekcha frazeologizm
pat smb on the back	Birovning orqasiga silab qo'yish	Ma'qullamoq, birovni rag'batlantirish	гладить по головке	Kimningdir ko'nglini ko'tarish
sleep like a log	Xoda kabi uxlash	Chuqur uxlash	спать как сурок, спать без задних ног	Dong qotib uxlamoq
tell smb where to get off	Birovga qayerda chiqish kerakligini aytish	Birovni o'z o'rniga qo'yish	намылить голову кому-либо	Birovni boshini ko'pirtirish
upset the apple-cart	Olma to'la aravani ag'darish	Kimningdir rejalarini buzish	Испортить всю музыку, спутать все карты	Barcha musiqani buzish
plain sailing	Oddiy, oson suzish	Oson yo'l, oldinga muvaffaqiyatli siljish	Всё идёт как по маслу	Hamma narsa soat kabi ketmoqda

**XULOSA.** Ingliz tili darslarida frazeologizmlarga qiziqishni oshirish uchun lug'aviy zaxirani boyitishga qaratilgan interfaol mashqlar tizimini ishlab chiqish va ularga mavzuga yaqin frazeologizmlarni kiritish lozim.

Ingliz va o'zbek tilidagi frazeologizmlarni o'rganish uchun qo'shimcha darslar, mustaqil ishlar o'tkazish maqsadga muvofiq.

Yuqori sinflarda va oliygohlarda o'z ichiga frazeologik birliklarni kiritgan adabiy asarlardan parchalarni tarjima qilish, ulardagi frazeologizmlarni tahlil qilish bo'yicha topshiriqlarni kiritish kerak.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Абдукабирова Д.И. Фраzeологик бирликларнинг инглиз ва ўзбек тилларида таржима қилиниш

тараккиёти // ARES. Volume 2|Issue 5| 2021| P.67-72.

2. Василевич А.П., Попова Л.К. К вопросу о методике обучения фразеологическим единицам английского языка. // Вестник МГОУ. Серия: Педагогика. 2018. №3. С. 108-114.
3. Ниязметова Ш.К. Способы и методы обучения использованию фразеологических единиц в образовательном процессе // Замоновий таълим/ Современное образование. -2020.- №5(90). - С.38-43.
4. Худоёрова С.Т., Худоёрова С.Н. Ономастик таркибли фразеологизмлар коннотатив маъносига доир (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида) // Academic Research in Educational Sciences| Volume 2| Issue 3| 2021| P.707-713.